

O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA NOMODDIY AKTIVLARNING IQTISODIY SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Muxtarova Nurjahon Otabek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti o‘qituvchisi

(ilhomovanurjahon7@gmail.com)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida nomoddiy aktivlarning iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda nomoddiy aktivlarning an‘anaviy buxgalteriya yondashuvidan farqli ravishda korxonaning strategik raqobat ustunligini shakllantiruvchi resurs sifatidagi iqtisodiy mazmuni ochib berilgan. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining ishlab chiqarish, eksport, investitsiya va bandlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinib, tarmoqning ishlab chiqarish salohiyati kengayayotgan bir sharoitda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish uchun nomoddiy resurslardan foydalanishning ahamiyati asoslangan. Muallif tomonidan nomoddiy aktivlarni intellektual-huquqiy, innovatsion-texnologik, brend-marketing, dizayn, tashkiliy va raqamli kapitalga ajratishga asoslangan tasnif taklif etilgan. Shuningdek, “nomoddiy aktivlar → iqtisodiy salohiyat → raqobatbardoshlik → qo‘shimcha qiymat” zanjiriga asoslangan konseptual model ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligini baholashni takomillashtirish va kelgusida ularning global qiymat zanjirlaridagi funksional modernizatsiyaga ta’sirini o‘rganish uchun nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: nomoddiy aktivlar, intellektual kapital, innovatsion kapital, brend kapitali, dizayn kapitali, raqamli kapital, to‘qimachilik sanoati, qo‘shimcha qiymat, raqobatbardoshlik, iqtisodiy salohiyat.

Jahon iqtisodiyotining bilimlarga asoslangan rivojlanish modeliga o‘tishi korxonalarning raqobat ustunligini shakllantiruvchi omillar tarkibining o‘zgarishiga olib kelmoqda. An‘anaviy ishlab chiqarish modelida korxonaning raqobatbardoshligi asosan moddiy ishlab chiqarish vositalari, mehnat resurslari va moliyaviy kapital bilan bog‘langan bo‘lsa, zamonaviy iqtisodiyotda bilim, innovatsiya, intellektual mulk, brend, dizayn, texnologik tajriba, marketing kompetensiyalari va raqamli resurslarning iqtisodiy ahamiyati ortib bormoqda.

Ayniqsa, to‘qimachilik sanoatida ushbu tendensiya yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur tarmoqning dastlabki rivojlanish bosqichida asosiy raqobat ustunligi arzon mehnat, xomashyo va ishlab chiqarish quvvatlari bilan belgilanadigan bo‘lsa, global

bozorda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish bosqichiga o‘tishda mahsulot dizayni, brend, marketing, intellektual mulk va innovatsion texnologiyalar hal qiluvchi omillarga aylanmoqda.

O‘zbekiston uchun mazkur masala alohida dolzarblik kasb etadi. Mamlakat to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portalining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish hajmi 134 trln so‘m, xorijiy investitsiyalar hajmi 2,1 mlrd AQSh dollari, eksport hajmi esa 2,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan. Tarmoqda band bo‘lganlar soni 623 ming kishiga yetgan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining rivojlanishida keyingi bosqich faqat ishlab chiqarish hajmini oshirish emas, balki yaratilayotgan qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish masalasiga bog‘liq. Bunda korxonalarning nomoddiy aktivlarini shakllantirish va ulardan strategik foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning asosiy muammosi shundan iboratki, korxonalarda mavjud nomoddiy resurslar ko‘pincha alohida va tarqoq elementlar sifatida qaraladi. Natijada brend, dizayn, intellektual mulk, inson kapitali, texnologik bilim va raqamli resurslarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning yagona iqtisodiy salohiyat yaratishdagi roli yetarlicha tizimli baholanmaydi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida nomoddiy aktivlarning iqtisodiy salohiyatini shakllantiruvchi omillarni aniqlash va ulardan samarali foydalanishning konseptual asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, induksiya va deduksiya, guruhlash hamda konseptual modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Empirik baza sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi hukumatining to‘qimachilik sanoati bo‘yicha rasmiy statistik va tahliliy ma‘lumotlaridan foydalanildi.

Nomoddiy aktivlarning iqtisodiy ahamiyatini tahlil qilishda ularni faqat moliyaviy hisobotlarda tan olingan aktivlar bilan cheklamasdan, korxonaning uzoq muddatli rivojlanishi va qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi strategik resurslar majmuasi sifatida ko‘rib chiqish taklif etiladi.

Tadqiqotning konseptual gipotezasi shundan iboratki, nomoddiy aktivlarning rivojlanganlik darajasi va ulardan foydalanish samaradorligining oshishi korxonaning strategik salohiyatini kuchaytiradi. Strategik salohiyatning rivojlanishi esa korxonaning innovatsion faolligi, marketing imkoniyatlari va eksport salohiyatini kengaytirish orqali uning raqobatbardoshligini oshirishga hamda yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mazkur o‘zaro bog‘liqlik quyidagi konseptual zanjir orqali ifodalanadi:

NA → KS → R → QQ

bunda:

NA — nomoddiy aktivlar;

KS — korxonaning strategik salohiyati, ya'ni nomoddiy aktivlar asosida shakllanadigan innovatsion, marketing, tashkiliy va eksport imkoniyatlari majmui;

R — korxonaning raqobatbardoshligi;

QQ — yaratiladigan qo'shimcha qiymat.

Shunday qilib, nomoddiy aktivlar korxonaning strategik resurslari sifatida uning strategik salohiyatini shakllantiradi, strategik salohiyat esa korxonaning bozordagi raqobat pozitsiyasini mustahkamlash va yuqori qo'shimcha qiymat yaratishiga zamin yaratadi.

Nomoddiy aktivlar korxonaning moddiy-jismoniy shaklga ega bo'lmagan, biroq kelgusida iqtisodiy manfaat keltirishi mumkin bo'lgan resurslarini ifodalaydi. An'anaviy hisob yondashuvida nomoddiy aktivlar tarkibiga patentlar, litsenziyalar, savdo belgilari, dasturiy ta'minot va boshqa huquqiy jihatdan identifikatsiya qilinadigan aktivlar kiritiladi.

Biroq zamonaviy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan korxonaning iqtisodiy salohiyatini faqat balansda tan olingan nomoddiy aktivlar bilan o'lchash cheklangan yondashuv hisoblanadi. Chunki korxonaning bozor qiymatini shakllantiruvchi bilim, tajriba, korporativ obro', boshqaruv kompetensiyalari, mijozlar bilan munosabatlar va dizayn salohiyati kabi resurslarning iqtisodiy ta'siri moliyaviy hisobotlarda to'liq aks etmasligi mumkin.

Shu sababli ushbu tadqiqotda "nomoddiy aktiv" va "nomoddiy resurs" tushunchalari o'zaro bog'liq holda ko'rib chiqiladi.

Nomoddiy aktivning iqtisodiy qiymati uning mavjudligi bilan emas, balki korxona uchun iqtisodiy natija yaratish qobiliyati bilan belgilanadi.

Masalan, savdo belgisining mavjudligi o'z-o'zidan yuqori iqtisodiy natijani kafolatlamaydi. Uning qiymati iste'molchi ishonchi, brend tan olinishi, marketing strategiyasi, mahsulot sifati va korxonaning bozor pozitsiyasi bilan birgalikda shakllanadi.

Demak:

Nomoddiy aktiv + samarali boshqaruv + tijoratlalashtirish = iqtisodiy qiymat.

Bu yondashuv to'qimachilik sanoati uchun ayniqsa muhim, chunki mazkur tarmoqda bir xil yoki o'xshash moddiy resurslardan foydalanadigan korxonalar turli darajadagi bozor qiymatini yaratishi mumkin.

O'zbekiston to'qimachilik sanoati so'nggi yillarda ishlab chiqarish, eksport va investitsiya yo'nalishlarida sezilarli o'sishni namoyish etmoqda.

Ko'rsatkich	Qiymat
2025-yil ishlab chiqarish hajmi	134 trln so'm
2025-yil xorijiy investitsiyalar	2,1 mlrd AQSh dollari
2025-yil eksport hajmi	2,5 mlrd AQSh dollari
2025-yil bandlik	623 ming kishi
2026-yil uchun ishlab chiqarish maqsadi	147 trln so'm
2026-yil uchun eksport maqsadi	3,3 mlrd AQSh dollari

Jadval 1. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining asosiy ko'rsatkichlari Manba: O'zbekiston Respublikasi hukumatining to'qimachilik sanoati bo'yicha rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvaldan ko'rinadiki, to'qimachilik sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyati sezilarli darajada kengaymoqda. 2026-yilda ishlab chiqarish hajmini 147 trln so'mga, eksportni esa 3,3 mlrd AQSh dollariga yetkazish maqsad qilingan.

Biroq mazkur ko'rsatkichlarning o'zi korxonalarning global qiymat zanjirlaridagi funksional pozitsiyasini to'liq tavsiflamaydi. Ishlab chiqarish hajmining oshishi korxona avtomatik ravishda yuqori qo'shilgan qiymatli faoliyatga o'tdi degani emas.

Shu nuqtada nomoddiy aktivlarning ahamiyati ortadi.

O'zbekistonning to'qimachilik eksporti tarkibida tayyor mahsulotlar ulushining ortishi ijobiy tendensiyaning ko'rsatadi.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil yanvar–noyabr oylarida O'zbekiston 2,266 mlrd AQSh dollari qiymatida to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilgan. Bu mamlakat jami eksportining 7,3 foizini tashkil qilgan. Eksport tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari 51,6 foiz, ip-kalava 28,4 foiz, trikotaj mato 11 foiz, gazlama 6 foiz, paypoq mahsulotlari 2 foiz va gilamlar 1 foiz ulushga ega bo'lgan.

Mahsulot turi	Ulushi, %
Tayyor to'qimachilik mahsulotlari	51,6
Ip-kalava	28,4
Trikotaj mato	11,0
Gazlama	6,0

Paypoq mahsulotlari	2,0
Gilamlar	1,0
Jami	100,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.

Tayyor mahsulotlar ulushining 50 foizdan yuqori bo'lishi tarmoqda xomashyoni qayta ishlash va yuqori bosqichlarga o'tish jarayoni kuchayayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, tayyor mahsulotning o'zi ham avtomatik ravishda yuqori qo'shilgan qiymatni anglatmaydi. Mahsulotning yakuniy iqtisodiy qiymati uning dizayni, brendi, marketingi, intellektual mulki va iste'molchi uchun yaratilgan qiymatiga ham bog'liq.

Shuning uchun keyingi rivojlanish bosqichida:

xomashyo → ip-kalava → gazlama → tayyor mahsulot zanjirini:

dizayn → brend → marketing → mustaqil bozor pozitsiyasi bilan to'ldirish talab etiladi.

Tadqiqot doirasida to'qimachilik korxonalarining xususiyatlarini hisobga olgan holda nomoddiy aktivlarni quyidagi oltita strategik guruhga ajratish taklif etiladi.

Jadval 3. To'qimachilik korxonalarida nomoddiy aktivlarning mualliflik tasnifi

Guruh	Asosiy elementlar	Iqtisodiy funksiyasi
Intellektual-huquqiy kapital	Patent, savdo belgisi, litsenziya, sanoat namunasi	Huquqiy himoya va tijoratlashirish
Innovatsion-texnologik kapital	Nou-xau, texnologik bilim, R&D natijalari	Innovatsion mahsulot va jarayon yaratish
Brend-marketing kapitali	Brend, reputatsiya, mijozlar bazasi, marketing kanallari	Bozor qiymatini va talabni oshirish
Dizayn kapitali	Dizayn, kolleksiya, kreativ ishlanmalar	Mahsulot differensiasiyasi

Tashkiliy kapital	Boshqaruv tizimi, biznes jarayonlari, korporativ bilim	Samaradorlik va boshqaruv sifati
Raqamli kapital	Dasturiy ta'minot, ma'lumotlar bazasi, e-commerce, digital marketing	Bozorga chiqish va raqamli savdo

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Ushbu tasnifning muhim jihati shundaki, nomoddiy aktivlar alohida obyektlar sifatida emas, balki o'zaro bog'langan iqtisodiy kapital turlari sifatida qaraladi.

Masalan, yangi dizayn yaratishning o'zi yetarli emas. Dizayn intellektual mulk sifatida himoyalaniishi, brend orqali bozorga olib chiqilishi va raqamli marketing orqali iste'molchiga yetkazilishi lozim.

Shu sababli nomoddiy aktivlarning iqtisodiy samarasi ularning alohida emas, balki integratsiyalashgan holda ishlash darajasiga bog'liq.

Tadqiqotda "nomoddiy aktivlarning iqtisodiy salohiyati" tushunchasiga quyidagi mualliflik ta'rifi beriladi:

Nomoddiy aktivlarning iqtisodiy salohiyati — korxona ixtiyoridagi intellektual, innovatsion, brend-marketing, dizayn, tashkiliy va raqamli resurslarning o'zaro integratsiyasi asosida qo'shimcha qiymat yaratish, raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash imkoniyatidir.

Ushbu ta'rif nomoddiy aktivlarning iqtisodiy mazmunini faqat ularning balans qiymatidan ajratib, ularni kelgusidagi iqtisodiy natija yaratish qobiliyati bilan bog'laydi.

Nomoddiy aktivlarning iqtisodiy salohiyati quyidagi natijalarda namoyon bo'ladi:

1. mahsulot differensiasiyasi;
2. mahsulotga qo'shimcha qiymat qo'shish;
3. yangi bozor segmentlariga kirish;
4. eksport imkoniyatlarini kengaytirish;
5. innovatsion mahsulotlar yaratish;
6. korxonaning bozor qiymatini oshirish;
7. global qiymat zanjirida yuqoriroq funksional pozitsiyaga ko'tarilish.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagi yo'nalishlarda ifodalanadi.

Birinchidan, O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarida nomoddiy aktivlarning iqtisodiy mazmunini kengaytiruvchi mualliflik tasnifi ishlab chiqildi. Unda nomoddiy resurslar intellektual-huquqiy, innovatsion-texnologik, brend-marketing, dizayn, tashkiliy va raqamli kapitalga ajratildi.

Ikkinchidan, “nomoddiy aktivlarning iqtisodiy salohiyati” tushunchasi taklif qilindi va u nomoddiy resurslarning korxonada qo‘shimcha qiymat, raqobatbardoshlik va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash imkoniyati sifatida asoslandi.

Uchinchidan, nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligini faqat ularning balans qiymati bilan emas, balki ularning innovatsion, marketing, dizayn, eksport va raqobat natijalariga ta‘siri orqali baholashning konseptual yondashuvi ishlab chiqildi.

To‘rtinchidan, nomoddiy aktivlarning iqtisodiy natijaga ta‘sirini ifodalovchi:

Nomoddiy resurslar → iqtisodiy salohiyat → raqobatbardoshlik → qo‘shimcha qiymat konseptual modeli taklif etildi.

Mazkur ilmiy yangiliklar kelgusida nomoddiy aktivlarning O‘zbekiston to‘qimachilik korxonalarining global qiymat zanjirlaridagi funksional modernizatsiyasiga ta‘sirini miqdoriy baholash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijasida quyidagi konseptual model taklif etiladi:

1-bosqich — Nomoddiy resurslar

- Intellektual-huquqiy kapital
- Innovatsion-texnologik kapital
- Brend-marketing kapitali
- Dizayn kapitali
- Tashkiliy kapital
- Raqamli kapital

2-bosqich — Integratsiya

Nomoddiy aktivlarni yagona strategik boshqaruv tizimiga birlashtirish

3-bosqich — Iqtisodiy salohiyat

Innovatsion + marketing + ishlab chiqarish + eksport salohiyati

4-bosqich — Bozor natijasi

Raqobatbardoshlik + mahsulot differensiasiyasi + bozor ulushi

5-bosqich — Iqtisodiy natija

Yuqori qo‘shilgan qiymat + eksport daromadi + korxona qiymatining o‘sishi

Mazkur modelda nomoddiy aktivlar korxona faoliyatining yakuniy natijasi emas, balki iqtisodiy qiymat yaratish jarayonining boshlang‘ich strategik resursi sifatida qaraladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyati sezilarli darajada rivojlanmoqda. 2025-yilda tarmoq ishlab chiqarishi 134 trln so'mga, eksport hajmi 2,5 mlrd AQSh dollariga va bandlik 623 ming kishiga yetgan.

Shu bilan birga, 2025-yil yanvar–noyabr oylarida to'qimachilik eksportida tayyor mahsulotlarning 51,6 foizlik ulushga ega bo'lishi O'zbekistonning xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o'tish jarayoni kuchayayotganini ko'rsatadi.

Biroq yuqori qo'shilgan qiymatga erishish faqat mahsulotni fizik jihatdan chuqurroq qayta ishlash bilan belgilanmaydi. Mahsulotning dizayni, brendi, intellektual mulki, marketingi, raqamli savdo imkoniyatlari va innovatsion salohiyati uning yakuniy iqtisodiy qiymatini shakllantiruvchi muhim omillardir.

Shu asosda tadqiqotda nomoddiy aktivlarning iqtisodiy salohiyatini korxonaning qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyati sifatida baholash taklif etildi.

Muallif tomonidan ishlab chiqilgan tasnif nomoddiy aktivlarni oltita asosiy guruh — intellektual-huquqiy, innovatsion-texnologik, brend-marketing, dizayn, tashkiliy va raqamli kapitalga ajratadi.

Taklif etilgan konseptual model esa nomoddiy resurslarning iqtisodiy natijaga ta'sirini:

nomoddiy resurslar → iqtisodiy salohiyat → raqobatbardoshlik → qo'shimcha qiymat

zanjiri orqali ifodalaydi.

Mazkur yondashuv kelgusida nomoddiy aktivlarning O'zbekiston to'qimachilik korxonalarini global qiymat zanjirlarining yuqori qo'shilgan qiymatli funksiyalariga olib chiqishdagi rolini empirik baholash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan, keyingi tadqiqot bosqichi sifatida nomoddiy aktivlarning funksional modernizatsiyaga ta'sirini o'lchash uchun **integral indeks** ishlab chiqish va uning korxonalar eksport samaradorligi hamda global qiymat zanjiridagi pozitsiyasi bilan bog'liqligini ekonometrik baholash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Accounting Standards Board. **IAS 38: Intangible Assets**. IFRS Foundation.
2. OECD. **Supporting Investment in Knowledge Capital, Growth and Innovation**. OECD Publishing.
3. Teece, D. J. (2007). Explicating dynamic capabilities: The nature and microfoundations of sustainable enterprise performance. *Strategic Management Journal*, 28(13), 1319–1350.
4. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). The governance of global value chains. *Review of International Political Economy*, 12(1), 78–104.

5. Wernerfelt, B. (1984). A resource-based view of the firm. *Strategic Management Journal*, 5(2), 171–180.
6. Barney, J. (1991). Firm resources and sustained competitive advantage. *Journal of Management*, 17(1), 99–120.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. **Foreign trade turnover of the Republic of Uzbekistan: Export of textile products**. 2025.
8. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. **Textile production in Uzbekistan increased by 10.1%, while export value rose by 24.1%**. 2026.
9. O‘zbekiston Respublikasi hukumati. **Results of 2025 in the textile industry and priority tasks for the future**.2026.